

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov

Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
--	---

PEDAGOGIKA

T.Egamberdiyeva, O.Ashurova

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari.	9
---	---

U.Maqsudov, R.Rahmonova

Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
---	----

M.Suyunova

Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
--	----

N.Saidova, B.Abdullayeva

Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli	20
---	----

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
--	----

A.Kalliyev

Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar	27
--	----

I.Usmonaliyev

Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
--	----

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
--	----

Q.Aliqulov

Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	41
--	----

TARIH

X.Boymirzayev, Z.Jobborov

Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
--	----

X.Mamajonov

Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
--	----

A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov

Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida	53
---	----

A.Abduxalimov

Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi	57
--	----

I.Yusupov

O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi	62
---	----

I.Turdiyev

Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari	67
---	----

Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov

O'zbekistonning Samarqand shahridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti	70
--	----

ADABIYOTSHUNOSLIK

L.Axmadaliyev

Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida	85
---	----

INNOVATSION VA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGIGA TA'SIRI

ВЛИЯНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ И ТРАНСФОРМАЦИОННЫХ ИЗМЕНЕНИЙ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ АКТИВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

THE IMPACT OF INNOVATIVE AND TRANSFORMATIONAL CHANGES ON THE ECONOMIC ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE

Aliqulov Quvvat Haqnazarovich¹

¹Aliqulov Quvvat Haqnazarovich

– SamISI dots. f.f.d.(PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada tadqiqotning maqsadiyoshlar iqtisodiy faolliгинnovatsion va transformatsion jihatlarining o'ziga xosligi va uning hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Maqoladakompleks yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, kuzatuv, sotsiologik so'rovnoma kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Аннотация

Целью исследования в данной статье была попытка раскрыть специфику инновационных и трансформационных аспектов экономической деятельности молодежи и ее значение в современный период реформ.

В статье использованы такие методы исследования, как комплексный подход, историчность и логичность, системность, сравнительный анализ, наблюдение, социологический опрос.

Abstract

The purpose of the research in this article was an attempt to reveal the specifics of innovative and transformational aspects of youth economic activity and its significance in the modern period of reforms.

The article uses such research methods as an integrated approach, historicity and consistency, comparative analysis, observation, sociological survey.

Kalit so'zlar: innovatsion muhit, transformatsion jarayonlar, o'rta qatlam, axloqiy-estetik qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot, faol ishbilarmonlik, novatorlik, ekologik xavfsizlik, kreativ tafakkur, sintez, etnomadaniy tajriba.

Ключевые слова: инновационная среда, трансформационные процессы, средний слой, нравственно-эстетические ценности, социальный прогресс, активный бизнес, новаторство, экологическая безопасность, креативное мышление, синтез, этнокультурный опыт.

Key words: innovative environment, transformational processes, middle classes, moral and aesthetic values, social progress, active business, innovation, environmental safety, creative thinking, synthesis, ethno-cultural experience.

KIRISH.Jamiyatdagi tub sifatiy o'zgarishlar, sotsiokreativ yangilanishlar fuqarolik jamiyati talablari va bozor iqtisodiyoti sharoitida yuzaga kelmoqda. An'anaviy iqtisodiyot yangi jamiyat talablari va innovatsion muhit ta'sirida takomillashib, transformatsion jarayonlar tufayli institutsionallashib bormoqda. Bunday institutsional, funksional o'zgarishlar Yoshlarning iqtisodiy faolligiga jiddiy ta'sir etmoqda. Ijtimoiy taraqqiyot qadriyatlar arxitektonikasiga yangicha sifat baxsh etib, jamiyatning yangi umumaksiologik qatlamini yaratadi. Eski, an'anaviy tafakkurdan yangi, innovatsion tafakkurga o'tish aynan jamiyatning Yoshlar qatlamidan boshlanishi bu tabiiy holdir. "Odam hayotda farovonlikka erishish uchun o'zgarishlarni anglab yashashi kerak. Chunki taraqqiyotga turg'un fikrlar emas, yangilanishlar xizmat qiladi"[1,21]. Yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faollashtirishda, avvalo, innovatsion tafakkur, transformatsion jarayonlar dialektik bog'liqligini tushunmoq kerak.

Yaqin kelajakda ko'pchilikni tashkil etadigan jamiyatning o'rta qatlamini shakllantirish aynan Yoshlarning iqtisodiy ongi, madaniyati va tarbiyasi bir butun jamlaydigan iqtisodiy faolligiga bog'liq bo'lib qoladi. Yoshlarning iqtisodiy faolligi birdan yuzaga keladigan tarixiy jarayon emas, balki jamiyatda transformatsion va innovatsion jadallashish tufayli yuzaga keladigan dinamik jarayondir.

Ilmiy adabiyotlarda jamiyatda turli evolyutsion, revolyutsion (ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-madaniy) o'zgarishlar natijalari "transformatsiya" tushunchasi bilan izohlanib kelinadi. Ushbu tushunchaning o'zi nima ma'noni anglatadi? "Transformatsiya" tushunchasi o'tgan asrda paydo bo'lgan, ammo bu voqea-hodisalarga, ayniqsa, ijtimoiy borliqqa, inson faoliyati mahsuli

bo'lgan jarayonlarga transformatsiya azaldan taalluqli, ularning immanent belgilari, xususiyatlari bo'lib kelganini inkor qilmaydi. Transformatsion o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotning immanent xususiyati bo'lsa-da, uning barcha xalqlar, millatlar, davlatlar uchun birdek mos keladigan modeli yo'q. Har bir xalq, millat, davlat uni o'zining strategik maqsadlariga muvofiq ishlab chiqadi va amalga oshiradi[2,10].

Mavjud o'zgarishlar kishilarning axloqiy-estetik qadriyatlarida aks etib borishi tabiiy holdir. Ijtimoiy ehtiyojlarning yangi muhitga o'sib o'tishida tizim qismlarining yangilanishi "innovatsiya" tushunchasi bilan izohlansa, qadriyatlar tizimini tanlashi, saralanishini "transformatsiya" tushunchasi qamrab oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Tadqiqotchi R.Ro'ziyevaning fikricha, "axloqiy qadriyatlarda ikki qatlam – o'zak (o'zgarmaydigan) va ustki qatlam (ijtimoiy munosabatlarga moslashuv) mavjuddir. Ijtimoiy taraqqiyot talablariga moslashuv, asosan, ustki qatlamda yuz beradi. Axloqiy qadriyatlarining ijtimoiy taraqqiyot talablariga muvofiq transformatsiyasi ham ustki qatlam orqali kechadi. Birinchi, o'zak qismni hatto sotsial revolyutsiyalar ham o'zgartirolmaydi, ikkinchi qismni kunlik ehtiyojlar, tashqi ta'sirlar, integratsion aloqalar, informatsion oqimlar kundalik ehtiyojlarga muvofiq o'zgartirishi, transformatsiyaga uchratishi mumkin"[3,54].

Ijtimoiy taraqqiyot ta'sirida yuzaga keladigan transformatsion o'zgarishlar axloqiy, huquqiy, siyosiy va hokazo ijtimoiy ongning barcha shakllariga birin- ketin sifatli o'zgarishlarni kiritib boraveradi. Ushbu kompleks o'zgarishlar Yoshlarning faollashishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Huquqiy, me'yoriy tartibga soluvchi hujjatlar, Prezidentning farmoni va qarori Yoshlar o'rtasida faol ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkor shaxsini tarkib toptirish ishlarini nazorat qiladi va boshqaradi. Transformatsion va innovatsion jarayonlar kishilardan hayotiy pozitsiyasini tanlashga, yangi zamon uchun juda faol bo'lishga undaydi. Shuning qatorida jamiyatdagi qadriyatlar takomillashuvi, ong oqimini boshqarish, ta'lim-ma'rifiy sohani nazorat qilish – bu sohaga institutsional yondashishni talab qiladi. Hozirgi kunda davlatning innovatsion siyosatidan asosiy maqsadi mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholining turmush sifati oshirish va novatorlik bo'yicha faolligini ta'minlash, texnologik va ekologik xavfsizligini ta'minlash uchun innovatsion faollik ustuvorliklarini tan olishdan kelib chiqib shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Yoshlarning innovatsion iqtisodiy faolligidan maqsad esa mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligining o'sishi, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni ta'minlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish hamda mamlakatning mudofaa qobiliyatini, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini mustahkamlashdan iborat.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yoshlarning iqtisodiy faolligi oshib borishi ikki jihatni namoyon qilishi mumkin, *birinchidan*, jamiyatda kechadigan transformatsion o'zgarishlar oqibatida iqtisodiy tushunchalar axloqiy qadriyatlarni emirishi, *ikkinchidan*, mavjud qadriyatlar tizimidagi innovatsiyaga intilishga konservativ munosabatning kuchayib ketish ehtimolini keltirib chiqishi mumkin. Shuning uchun, Yoshlar iqtisodiy faolligini u yoki bu ta'sirlardan himoyalash, ishlarni maqsadli rivojlantirishda tamoyillar tarmog'ini, harakatlar rejalarini ishlab chiqish zarur.

Yoshlar iqtisodiy faolligini boshqarishda mavjud transformatsion va innovatsion o'zgarishlar o'zaro ta'sirlashib quyidagi tamoyillar tarmog'ini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Biz buni, taxminan, quyidagicha belgilaymiz: 1) komplekslik tamoyili, ya'ni Yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'sir o'tkazuvchi axloqiy-estetik qadriyatlarni hisobga olish; 2) tarmoqlilik tamoyili, ya'ni Yoshlarning iqtisodiy faolligini boshqarishning umumlashtirilgan modelini tuzish, faollashtirishning nazariy modelini tuzish, umumiy qo'yilgan maqsad haqiqatdagi holat bilan o'zaro aloqasini aks ettirishi; 3) innovatsion biznesni rivojlantirishda Yoshlarning ishtirokini ta'minlash va Yoshlar siyosatini amalda tatbiq etish tamoyili; 4) mehnatga halol munosabatni maqsad qilib olish, ya'ni mehnat faoliyatining maqsadi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy motivi bo'lishi, Yoshlarni jamiyatdagi yuqori statusini ta'min etishi tamoyili; 5) Yoshlarning iqtisodiy faolligini dinamik kuch sifatida mavjud bo'lishi uchun davlatning uzluksiz boshqaruv tarmog'ini takomillashtirishi, ya'ni "Yoshlar ittifoqi" bilan ishlash mexanizmini yaratish tamoyili; 6) faollik muhitida Yoshlarni tarbiyalash, ularni boshqarish zaxirasiga qo'shish orqali yetakchilikni rivojlantirish, rahbarlik etikasini shakllantirish, faol Yoshlarni tarbiyalash bo'yicha tarmoqli ishni davom ettirish tamoyili.

Mazkur tamoyillar innovatsion va transformatsion o'zgarishlar davrida Yoshlarning iqtisodiy faolligini boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini berib, ayni paytda ularni takomillashtiradi, yo'naltiradi va motivatsion impuls beradi. Tafakkurdagi yangilanishlar o'z-o'zidan vujudga keladigan jarayon emas. Bu erda chuqur transformatsiyali jarayonning sintezi yotadi. Tadqiqotchi N.Jo'raevning fikricha, jamiyatdagi yangilanish jarayoni ijtimoiy amaliyotga ko'chayotgani, yangi qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan ishlar ayrim o'zaro ta'sir makoniga aylanayotganini ta'kidlaydi. Buni quyidagicha belgilaydi: 1) "Eskilik bilan yangilik o'rtasida goh oshkora, goh yashirin kurash ketadi. Eski tuzum illatlari yashashni istaydi, shu boisdan o'z o'rnini bo'shatishni xohlamaydi. Yangi tuzum g'oyalari esa jamiyatni yangilash zaruratidan kelib chiqadi va o'zgarishlarning hayot-mamot mohiyatiga, har bir fuqaro taqdiriga aylantirib boradi, yangidan shakllanayotgan turmush tarzi va dunyoqarashning mohiyatini tashkil etib, uni har jihatdan himoya qiladigan fikr sifatida maydonga keladi". 2) "Fuqarolar ongi va tafakkurining jamiyatni tubdan o'zgartirish va yangilash jarayonlariga siyosiy va ma'naviy jihatdan qay darajada shayligidir". 3) "Yangilanishlar tizimini hayotga joriy etish va chuqurlashtirish sharoitida fuqarolarni demokratik jarayonlarni tashkil etuvchi, boshqaruvchi hamda faol himoyachisi sifatida tayyorlashdir"[4,317].

Hozirgi davrda ta'lim dargohida yetishib chiqqan mutaxassis yoki erkin tadbirkorning oldida ikki yo'l: ijodiy, kreativ tafakkurni rivojlantirish; qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan kasb-hunarga oid bilimlarni yangilash va undan unumli foydalana olish singari transformatsion yo'ldir.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da ko'zga tutilgan "xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish[5] ishlari bugungi kunning dolzarb muammolaridandir.

Tadbirkorlik, avvalo, xulq-atvor, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatlarning tartibga solingan faoliyati bo'lib, Yoshlarning ilk tavakkalchiligi oldida turuvchi mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkinlikdir. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy mazmuniga ko'ra: "...kichik tadbirkorlik faoliyati bu – amaldagi mavjud qonunlar doirasida faoliyat yuritadigan hamda o'zi va jamiyat manfaati uchun yuqori aqliy va jismoniy salohiyatga, xususiy mol-mulki va jamg'armasiga ega bo'lgan, turli tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi, o'z faoliyati davomida ixtirolarni amalga oshiruvchi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni o'z zimmasiga olib, foyda ko'rishni mo'ljallovchi, nostandart fikrlashga moyil bo'lgan tashabbuskorning ishbilarmonlik faoliyati"[6,13] ekani ta'kidlanadi. Tadbirkorlik yuqoridan buyruq asosida yuzaga keladigan jarayon emas. Tadbirkorlik Yoshlarning shaxsini namoyon qiluvchi, imkoniyatlarini va ehtiyojlarini birlashtiruvchi ijodiy faollik natijasidir. Bu faoliyat davomida tadbirkor manfaat, o'zini-o'zi tarbiyalash, cheklash, burch, sha'n hissi, shaxsiy axoqiy javobgarlik hissiga asoslangan bo'ladi.

Iqtisodiy faollik iqtisodiy ongning amaliy ko'rinishi, iqtisodiy madaniyatning real hayotda namoyon bo'lishidir. Yoshlarning zamonaviy madaniyatni o'zlashtirishi va ayni paytda shu madaniyat asosida iqtisodiy taraqqiyotga erishishi iqtisodiy madaniyatda bir pog'ona balandga ko'tarilganini bildiradi. Ayrim tadqiqotlarda aytilishicha: "...jamiyat iqtisodiy madaniyatini ijtimoiy guruhlarga xos bo'lgan iqtisodiy faollik va munosabatlarning takomillashuvini bir bosqich holatdan boshqasiga o'tishini aks ettiruvchi tizim sifatida ham olib qarash mumkin"[7,26]. Ushbu qarashga e'tiroz sifatida aytish mumkinki, iqtisodiy madaniyat ma'lum bir davrning iqtisodiy borlig'idagi jarayonlarni, munosabatlarni qamrab oluvchi, o'z zamoni odami iqtisodiy xatti-harakatlarining moddiy ko'rinishini bildiradi. Iqtisodiy faollik esa iqtisodiy ongning amaliyotda namoyon bo'lishini aks ettirib, u madaniyat darajasiga chiqmasligi ham mumkin.

Transformatsion jarayonlarda Yoshlar iqtisodiy faolligi bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimidan yangi munosabatlar tizimini keltirib chiqaradi, milliy-etnomadaniy xususiyat kasb etgan sifatlarni zamonaviylashtiradi. Bu jarayonda o'tmish tajribalar to'la inkor etilmaydi, yaroqli, sinovdan o'tgan elementlar saqlab qolinadi. Bunga misol sifatida hunarmandchilik, kasanachilik, xalq amaliy san'ati va turli milliy hunarmandchilik mahsulotlar zamonaviy texnologiya asosida innovatsion yarmarkalarda o'z xardorini topmoqda va ayniqsa, turizmning rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda.

Mulkning pozitiv, demokratik xususiyatlarini e'tirof etgan holda aytishimiz kerakki, mulk ham erk, erkinlik ifodasidir.

Mulkni o'z iqtidori, kuchi, erkiga ishongan kishigina yarata oladi. Mute kishiga berilgan mulk uni battar mutega aylantiradi. Shuning uchun, o'z iqtidori, kuchi va erkiga ishongan kishigina mulkning haqiqiy egasi, xususiy mulkdor bo'la oladi.

Mulki yo'q odam mulki bor odamga yo bevosita yoki bilvosita bog'liq, hatto qaram bo'ladi. Agar jamiyat va davlat xususiy mulkdorlar sinfini yaratishni bosh maqsad qilib qo'ysa, mulki yo'q kishining mulkdorga qaram bo'lishi turgan gap. Jamiyatning barcha a'zolarini xususiy mulk egasi, mulkdor qilishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Bozor munosabatlari hamma narsani, hatto insonning aqlu idroki, quvvati, topqirligini ham oldi-sotdi ob'ektiga aylantirishi mumkin"[8,194].

Bundan keyingi iqtisodiy hayot an'anaviy tafakkur tarzidan voz kechib, pragmatik, pozitiv, innovatsion tafakkurga o'tishga transformatsion asos yaratmoqda. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish tizimlari negizida shakllanayotgan zamonaviy yoshlar iqtisodiy faolligi korporativ, sillektiv, virtual asoslarga singib boradi. Endi Yoshlar tadbirkorligi savdo-sotiqni oddiy, ibtidoiy shaklidan, "brend savdosi", "virtual magazin", "internet do'kon", " intellektual mulk savdosi" singari yangi sohalarga o'sib o'tadi. Inson mehnati tobora ijodiy, yaratuvchanlikka o'tib borishi bilan va shunga muvofiq ravishda, aqliy-intellektual faoliyat bilan band bo'lgan Yoshlarning soni ortib borishi ro'y bermoqda. Bu o'z-o'zidan Yoshlarning barcha imkoniyatlarini, "birinchi navbatda, ijodkorlik qobiliyatini namoyon qilishi uchun sharoit yaratadi, shu bilan birga, fan va texnika rivojining o'zi ham inson omiliga, uning madaniyatiga bog'liq bo'lib qolaveradi"[9,123].

Yoshlarning iqtisodiy faolligi rivojlanishini ta'lim sohasidagi islohotlarning izchilligida deb biluvchilar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu munosabat bilan Samarqand viloyati Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida sotsiologik so'rovnoma tashkil etildi. "Yoshlarning iqtisodiy faollashuvida ta'lim va maorif tizimini o'rnini qanday belgilaysiz?" - degan savol anketasiga respondentlarimizning 82 foizi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni ijobiy baholaydi. Ushbu respondentlar ichida ziyolilar 62, tadbirkorlar 27, ishchi-xizmatchi va uy bekalari, fermerlar 11 foizni tashkil etadi. Ta'lim sohasidagi islohotlar tadbirkorlar fikriga ham ijobiy ta'sir etgan. Tadbirkorlar yaratayotgan xususiy mulki kimlar, qanday fazilatli avlod qo'lga tushishi haqida fikr yuritadilar, shu bois ular farzandlarining ilmi, yuksak intellektual salohiyatga ega insonlar bo'lib yetishishidan manfaatdor. Aynan tadbirkorlar (93 foiz) Yoshlarda iqtisodiy faollik va iqtisodiy bilimlarni shakllantirishni ustuvor vazifa deb biladilar. Bunday fazilatlarsiz kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanib bo'lmashligini ular to'g'ri anglaydilar.

Respublikamizda "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish Markazi tomonidan 2014-yilda o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomada qatnashgan respondentlarning 97,3 foizi mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun yaratilgan shart-sharoitlardan mamnun ekanini bildiradilar. Bu ko'rsatkich 2011-yili 91,0 va 2012-yili 97,1 foiz atrofida edi[10,27]. Jamiyatimizda iqtisodiy islohotlarning jadallashishi davlatimiz tomonidan Yoshlar iqtisodiy faolligini va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi bois fuqarolar ijtimoiy fikridagi ijobiy munosabat barqaror voqelikka aylangan.

Iqtisodiy faollik bilan an'analar, turmush tarzi, etnomadaniy tajribalar o'rtasida bir-birini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladigan mushtaraklik bor. Bu o'rinda, yuqorida aytganimizdek, oilaviy tadbirkorlikni, hunarmandchilik va kasanachilikni eslash mumkin. Shu bilan birga, Samarqand shahar mahallalarida o'tkazilgan so'rovnomalarda respondentlar biznesmen va tadbirkorlarda xalqimiz e'zozlaydigan axloqiy fazilatlarni ko'rishni istaydilar. "Yoshlar iqtisodiy faolligida eng zarur fazilat nima?" - degan savolimizga olgan javoblarimiz quyidagicha taqsimlanadi: - halollik – 70%; - yurtiga xizmat qilish – 65%; - boy bo'lib yashash – 43,0%; - oldi – sotdi va pul topish – 36%; - ish bilan band bo'lish – 30%; - davlat iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shish – 20%. Javoblar ichida "Halollik" va "Yuritiga xizmat qilish" yetakchi o'rinda turadi. Jamiyatimizda insonlar har bir ishda halol bo'lishni, yon-atrofdagi kishilar bilan topganini baham ko'rib yashashni e'zozlab keladi. Muqaddas dinimizda "Oллоh sizlarga rizq qilib bergan halol, pok narsalardan englar", - deyiladi va kishilar harom narsalardan hazar qilishga, o'zini tiyishga da'vat etiladi. Shuning uchun, "Albatta, halol ochiq-oydindir", - degan hadis "Islomning uchdan biri" deb hisoblanadi[11,113]. Yurtiga xizmat qilish el-yurt manfaatlari bilan yashash kerak, degan g'oyaga yaqin. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Elim deb, yurtim deb yashash kerak", - degan da'vati har bir Yosh avlodning

ongiga joylashgan, Yoshlar iqtisodiy faolligini rivojlantirishda ushbu da'vatga mos keladigan axloqiy fazilatlar bo'lishini istaydilar.

Yoshlarning iqtisodiy faolligiga ta'sir o'tkazadigan innovatsion va transformatsion o'zgarishlarni dinamikasi, ushbu ta'sir natijasida qaytar bog'lanish, diaxronik va sinxronik taraqqiyotini tahlil qilish, Yoshlarni bu boradagi faollashishini funkcionallashib borishi jarayonida: 1) jamiyatimiz Yoshlarining iqtisodiy faollashishiga, innovatsion iqtisodiyotga nisbatan ehtiyoji o'sib borishi obyektiv zaruriyat bo'lib, hozirgi ijtimoiy-tarixiy vaziyat taqozosidir; 2) ilmiy-texnik, texnologik o'zgarishlar, mintaqadagi iqtisodiy raqobat, YAIM o'sishga bo'lgan *geomafkuraviy* vaziyat keskinlashuvi va uning geoeconomik eskalatsiyasi o'zbek Yoshlarining global va milliy iqtisodiy tafakkurini shakllantirib, iqtisodiy faollashtirish me'yoriy-huquqiy bazasini va institutsional tizimini vujudga keltiradi; 3) "ehtiyot-manfaat-inson" tizimi unsurlarining o'zaro munosabatlari murakkablashib borishi bilan, ularni faollashtirish "trayektoriyasi" kengayadi; 4) Yoshlar iqtisodiy faolligini, iqtisodiy madaniyatini va umuman ta'lim-maorif tizimini "*iqtisodiy faollik ustaxonasi*"ga aylantirish ustuvor yo'nalishga aylanadi; 5) Yoshlar iqtisodiy faollashishi ommaviylashib, uning boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan aloqalari kuchayadi, funktsional jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga kiradi va faollashadi.

XULOSA

Mamlakatimiz rivojlanish strategiyasi asosida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy faolligini yuksaltirish hamda tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish borasida ulkan ishlar qilinmoqda. Lekin yoshlarning iqtisodiy bilimi, tafakkuri va faolligini shakllantirish jarayonini uzluksiz tarzda amalga oshirishni talab qiladi. Hozirgi kunda yoshlarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, uni axloqiy-estetik jihatlar bilan boyitish omili bu-ta'lim tizimida uslubiy ta'minotdir. Hozirgi kunda jamiyatning transformatsion o'zgarishlar va innovatsion rivojlanish bosqichiga chiqqanini inobatga olib, yoshlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati huquqiy asoslarining yaratilishi bu axloqiy jihatdan ta'minotini bildiradi. Yoshlarni bo'lajak mutaxassis sifatida ularning ongida iqtisodiy motivatsiyasini kuchaytirish, axloqiy jihatdan boyitilgan iqtisodiy munosabat, ekoestetik ishlab chiqarishni tizimli tashkil etish singari masalalar muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarning iqtisodiy faollikni ma'lum tajribadan o'tgan usullaridan boshlab, hozirgi kunda innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarishga bo'lgan jarayonni, avvalo, oila, ta'lim dargohi va jamiyatning siyosiy tashkilotlari tizimida tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo'lib, u har tomonlama axloqiy jihatni saqlab qolish va estetik tafakkurni shakllantiradi.

Iqtisodiy ta'lim berishga ixtisoslashmagan o'quv yurtlarida talabalarning iqtisodiy, axloqiy va estetik tafakkurini rivojlantirish, ularni kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish maqsadidan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatining istiqbolini belgilab berishga xizmat qiladigan menejment, marketing, innovatsion iqtisodiyot kabi fanlar yoki kurslarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev I. Falsafiy mulohazalar // Jamiyat va boshqaruv. – 2009. B.21.– № 4. (Ergashev I. Philosophical considerations // society and management. – 2009. B.21.– № 4.)
2. Данилов А. Переходное общество. Проблемы системной трансформации. –М.: ООО «Харвест», 1998.В.10.(Danilov A. Transitional Society. Problems of systemic transformation. LLC "Harvest", 1998.B.10.)
3. Ro'zieva R. Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish masalalari. Fal.fan.Dok. diss. – T., 2012. B.54.(Rzieva R. Issues of formation of harmony of national and universal values in the spiritual renewal of society. The verb.science.The dock. disse. - T., 2012. B.54.)
4. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –T.: Ma'naviyat, 2008.B.317.(Zhuraev N. Theoretical basis of historical philosophy. - T.: Spirituality, 2008.B.317)
5. Sanakulova B.R. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash. iqtisod.fan.dok.diss.avtoreferati. – T., 2016.B.13.(Sanakulova B.R. To ensure economic growth by improving taxation mexanizm of small business entities. the economy.science.the dock.disse.authorship. - T., 2016.B.13.)
6. Valiev B.N. Iqtisodiy madaniyat va uni shakllantirish omillari. Fal.fan.nom.diss. –T., 2004.B.26.(Valiev B.N. Economic culture and factors of its formation. The verb.science.name.disse. - T., 2004.B.26.)
7. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общества и культура. (Пер с англ.) –М.: ВШЕ, 2000,В.123.(Castels M.The Information Age: economy, Societies and culture. (Translated from aang.) –M.: HSE, 2000, B.123.)
8. Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. - 2014, №.1.B.27.(Social thought. Human rights. - 2014, №.1.B.27.)
9. SHayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 11-juz. –Toshkent: Sharq, 2011.B.113.(Sheikh Mohammed Sadiq Muhammad Yusuf. Hadith and life. 11-cuz. - Tashkent: East, 2011.B.113.)
10. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036 //2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi. http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036 //2017 — 2021 strategy of action on five priority directions of development of the Republic of Uzbekistan in the years.)